

**O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi
Guliston davlat universiteti**



САМАРСКИЙ
ПОЛИТЕХ
Самарский политехнический университет



**“SIRDARYO VILOYATINI INNOVATSION
HUDUDGA
AYLANTIRISH: MUAMMO, YECHIM VA
XALQARO TAJRIBA”**

**mavzusidagi xalqaro forsayt formatidagi
ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchisi**



**“TRANSFORMING SIRDARYA REGION INTO
INNOVATION REGION:
PROBLEM, SOLUTION AND INTERNATIONAL
EXPERIENCE”**

**participant of the scientific-practical conference
in the format of the international website**

Guliston-2023

**O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi
Guliston davlat universiteti**

**“SIRDARYO VILOYATINI INNOVATION
REGION
TRANSFORMING: MUAMMO, YECHIM VA
XALQARO TAJRIBA”**

**mavzusidagi xalqaro forsayt formatidagi
ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchisi**



**“TRANSFORMING SIRDARYA REGION INTO
INNOVATION REGION:
PROBLEM, SOLUTION AND INTERNATIONAL
EXPERIENCE”**

**participant of the scientific-practical conference
in the format of the international website**

bozorlarini yaxshilash uchun turli dasturlarni yaratish, yashil quti choralarga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Ishlab chiqaruvchilarga to'g'ridan-to'g'ri to'lovlar - bu sanoatning holatini yanada keskin rivojlanmasdan saqlab qolishning bir usuli. Mamlakatda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlariga yondashuvni to'liq o'zgartirish zarur, bu esa sanoatni rivojlanishning mutlaqo yangi darajasiga ko'tarish imkonini beradi[1].

Ta'kidlash joizki, jahon qishloq xo'jaligi hozirda nisbatan davlat ko'magiga bog'liq. Kehribar savatning chora-tadbirlarning umumiy hajmidagi ulushi qanchalik kichik bo'lsa va yashil savatning ulushi qanchalik katta bo'lsa, milliy qishloq xo'jaligining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi, bu esa qishloq xo'jaligi sohasidagi korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Амирова Э. Ф. Проблемы сельского хозяйства Индии [электронный ресурс] – Режим доступа <https://agroekonomika.ru/problem-y-selskogo-khozyaistva-indii>
2. ЕАЭС. ОБЗОР мирового опыта предоставления государственной поддержки сельского хозяйства. 2018 [электронный ресурс] – Режим доступа http://www.eurasiancommission.org/ru/act/prom_i_agroprom/dep_agroprom/sxs/Documents/Обзор%20мирового%20опыта%20предоставления%20государственной%20поддержки%20сельского%20хозяйства%202018.pdf
3. Официальный сайт Министерства сельского хозяйства США. Закон О Сельском Хозяйстве 2018 [электронный ресурс] – Режим доступа <https://www.usda.gov/farmbill>
4. Официальный сайт Комитета по сельскому хозяйству (COAG) [электронный ресурс] – Режим доступа <http://www.fao.org/coag/en/>
5. Официальный сайт Европейского Союза. Общая сельскохозяйственная политика [электронный ресурс] – Режим доступа https://ec.europa.eu/info/food—farming—fisheries/key—policies/common—agricultural—policy/cap—glance_en
6. Система управления сельскохозяйственной информацией ВТО [электронный ресурс] – Режим доступа <https://agims.wto.org/>
7. Черкасова О.В. Государственное регулирование сельского хозяйства Китая [электронный ресурс] – Режим доступа <http://www.dslib.net/economika-mira/gosudarstvennoe-regulirovanie-selskogo-hozjajstva-kitaja.html>

УДК 338.43

QISHLOQ XO'JALIGINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH – RAG'BATLANTIRISH OMILI

Burxanov Alisher Xadjimurodovich, Matrasulov Baxodir Erbutayevich
iqtisod fanlari nomzodi, Guliston davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasida dotsenti, Guliston,
O'zbekiston, alisher892jentra@gmail.com, +998998870794
ORSID.org 0000-0002-2794-0823

Guliston davlat universiteti "Buxgalteriya hisobi va moliya" kafedrasida katta o'qituvchisi

Maqola annotatsiyasi. Maqola qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muammolariga bag'ishlangan. Maqolaning maqsadi qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning zaruriyati, samaradorligi tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar qishloq xo'jaligi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, subsidiya, qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi.

Agrosanoat majmuasining eng muhim bo'g'ini qishloq xo'jaligidir. Bu tarmoq nafaqat agrosanoat majmuasida, balki butun mamlakat iqtisodiyotida o'rin tutadi. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hozirgi kunda dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida amalga oshirilmoqda. Sababi, mazkur tarmoq mamlakatimiz iqtisodiyoti va dunyoning har qanday rivojlangan davlati oziq-ovqat xavfsizligi uchun strategik ahamiyatga ega.

Oxirgi bir necha o'n yillikda dunyoda qishloq xo'jaligi mahsulotlari va xomashyo ishlab chiqarishda o'zgarishlar ro'y berdi. Turli mamlakatlar bu o'zgarishlarni turlicha izohlaydi.

Agrosanoat kompleksini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorijiy tajribani o'rganishda Rossiya, AQSh, Kanada, Polsha va boshqalar kabi yirik davlatlarning tajribasini o'rganish katta qiziqish uyg'otadi.

Dunyoning ayrim mamlakatlarda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash sohasida davlat dasturlari 1-jadvalda ko'rsatilgan.

1-jadval.

Dunyoning ayrim mamlakatlarda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash sohasida davlat dasturlari

Mamlakatlar	Dasturlar
O'zbekiston	❖ O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi ❖ Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi ❖ O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan kontsepsiyasi ❖ Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimini 2021 — 2025 yillarda ustuvor rivojlantirish kontsepsiyasi
Rossiya	❖ 1996-2000 yillar mo'ljallangan agrosanoat ishlab chiqarishini barqarorlashtirish va rivojlantirish bo'yicha federal maqsadli dasturi ❖ 2001-2010 yillarda Rossiyani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi ❖ Qishloqlarda 2010 yilgacha ijtimoiy rivojlantirish dasturi (2003) ❖ "Agrosanoat kompleksini rivojlantirish" milliy loyihasi (2006-2007) ❖ 2008-2012 yillarga mo'ljallangan qishloq xo'jaligini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xomashyo va oziq-ovqat bozorlarni tartibga solish davlat dasturi ❖ 2014-2017-yillarda va 2020-yilgacha bo'lgan davrda qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish. ❖ 2013-2020 yillarga mo'ljallangan Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xomashyo va oziq-ovqat bozorlarni tartibga solish davlat dasturi ❖ 2021-2025 yillarga mo'ljallangan Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xomashyo va oziq-ovqat bozorlarni tartibga solish davlat dasturi
AQSH	❖ Oziq-ovqat xavfsizligi qonuni (1985) ❖ Qishloq xo'jaligini muhofaza qilish, oziq-ovqat va savdoni ta'minlash to'g'risidagi qonun (1990). ❖ "Qishloq xo'jaligini takomillashtirish va isloh qilish to'g'risida"gi qonun (1996). ❖ "Qishloq taraqqiyotiga fermer investitsiyalarining xavfsizligi to'g'risida"gi qonun (2002)
Kanada	❖ Fermer xo'jaliklarining daromadlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun (1991) ❖ Istiqbolda o'sish dasturi (2008) ❖ Kelajakdagi o'sish asoslari - 2 (2013)
Polsha	❖ 2000-2004 yillarda qishloq joylarini faollashtirish dasturi ❖ 2004-2006 yillarda qishloq hududlarini rivojlantirish rejasi. ❖ 2004-2006 yillarda oziq-ovqat sektorini qayta qurish va modernizatsiya qilish va qishloqlarni rivojlantirish. ❖ 2007-2013 yillarda qishloq hududlarini rivojlantirish dasturi.
Qozog'is	❖ 2017-2021 yillarda Qozog'iston Respublikasi agrosanoat

ton	kompleksini rivojlantirish dasturi ❖ 2021-2025 yillarda Qozog'iston Respublikasi agrosanoat kompleksini rivojlantirish milliy loyihasi
-----	---

Muallif ishlanmasi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu sohani muvaffaqiyatli rivojlantirish davlat tomonidan samarali qo'llab-quvvatlashiga ko'zlangan natijalarni beradi. Dunyoning etakchi davlatlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash, oziq-ovqat bozorini tartibga solish, qishloqning ijtimoiy va ekologik dasturlarini qo'llab-quvvatlash uchun katta byudjet mablag'larini ajratadi va uning ijrosini nazoratga oladi.

Menejment nazariyasi bozor sharoitida faoliyat yurituvchi davlatlar har qanday tarmog'ida iqtisodiyot samarali va ko'plab bozor mexanizmlaridan foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi ta'minlashga erishishi zarur deb hisoblaydi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish va davlat xaridi uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishning barcha tashkiliy bo'g'inlari va bosqichlarida moliyalashtirishning uzviy va samarali yagona tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, agrosanoat majmuasi tovar ishlab chiqaruvchilari texnika parkini zamonaviy, yuqori samarali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish texnikasi bilan tubdan yangilash va jihozlash maqsadida 2017 yil 27 iyulda PF-5095-sonli "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzurida qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilinganligi qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangicha iqtisodiy munosabatlari yuzaga kelishiga olib keldi..

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 noyabrda "G'alla etishtirish va sotishda erkin raqobatni ta'minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish to'g'risida" PQ-10-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq quyidagi tartiblat joriy qilindi:

1). Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi kredit resurslari hisobidan g'alla etishtirish xarajatlarini qoplash uchun imtiyozli kreditlarni g'alla etishtiruvchi fermer xo'jaliklari, Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Urug'chilikni rivojlantirish markazi tarkibidagi elita urug'chilik xo'jaliklari va g'allachilik klasterlariga ajratiladi;

Bunda, Jamg'arma mablag'lari hisobidan 12 oy muddatgacha g'alla yalpi hosili umumiy qiymatining 40 foizigacha bo'lgan miqdorda moliyalashtirilganda yillik 10 foiz, 50 foizigacha bo'lgan miqdorda moliyalashtirilganda yillik 12 foiz stavkadan (shundan bank marjasi 2 foiz) oshmagan miqdorda tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratilmoqda.

G'alla etishtiruvchi fermer xo'jaliklari, Urug'chilikni rivojlantirish markazi tarkibidagi elita urug'chilik xo'jaliklari va g'allachilik klasterlariga kredit mablag'laridan erkin foydalanish, minyeral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish vositalari, yoqilg'i-moylash mahsulotlari va qishloq xo'jaligi texnikalarini to'g'ridan-to'g'ri xarid qilish huquqini byerildi.

2022 yildan boshlab respublika hududida ekishga tavsiya etilgan bug'doy navlarini xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan yer-suv sharoitlaridan kelib chiqqan holda mustaqil joylashtiriladi.

2). Ushbu qarorga muvofiq, Davlat boshqaruvi organlari, shu jumladan barcha darajadagi mahalliy hokimliklar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning quyidagilarga aralashuvi qat'iy qat'iy taqiqlandi:

- boshqoli don etishtirishda agroteknik tadbirlarni o'tkazish, moddiy-texnik resurslar bilan ta'minlashga;

- ajratilgan imtiyozli kreditlardan foydalanish yo'nalishlariga; - bug'doyni sotish jarayonlariga, shu jumladan shartnomalar tuzishga, xo'jaliklarni don tayyorlash va qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi ma'lum korxonalarga biriktirish, respublika hududlari o'rtasidagi ichki tashuvlarga aralashuvi;

- g'allachilik klasterlari faoliyatiga chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va boshqa yo'nalishlarni qo'shish to'g'risida yozma yoki og'zaki tartibda ko'rsatma byerishlari.

3). 2022 – 2024 yillarda g'allachilik klasterlari va fermer xo'jaliklari etishtirgan hosilning g'alla ekilgan har gektar sug'oriladigan maydon hisobidan respublika bo'yicha o'rtacha 2,5 tonnadan bug'doyni erkin birja savdolari orqali, qolgan qismini birjada shakllangan narxlarda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida sotiladi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi yuqorida qay etganimizdek ilg'or xorij tajribalaridan foydalanilgan holda takomillashtirilib bormoqda
Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 noyabrda "Paxta xom ashyosini yetishtirish va uning yig'im-terim xarajatlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2-sonli qarori qabul qilinishi ham mazkur soha strategic ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ushbu qarorga quyidagilar belgilandi:

1. 2022 yil hosilidan boshlab Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan paxta yetishtirish va paxta yig'im-terimi xarajatlarini moliyalashtirishning yangi tartibi joriy qilindi:

a) paxta xom ashyosini yetishtirish va paxta yig'im-terimini imtiyozli moliyalashtirish paxta-to'qimachilik klasterlari va Urug'chilikni rivojlantirish markazi tarkibidagi elita urug'chilik xo'jaliklari orqali amalga oshiriladi;

b) tijorat banklari tomonidan Jamg'arma resurslari hisobidan quyidagilar uchun imtiyozli kreditlar ajratiladi:

paxta-to'qimachilik klasterlariga paxta yetishtirish uchun — paxta xom ashyosi qiymatining 60 foizigacha miqdorda yillik 10 foiz (shundan, 2 foizi bank marjasi) stavkada 24 oyga, shu jumladan 18 oylik imtiyozli davr va 19-oydan boshlab so'nggi 6 oy davomida teng ulushlarda qaytarish sharti bilan;

Urug'chilikni rivojlantirish markazi tarkibidagi elita urug'chilik xo'jaliklariga paxta xom ashyosi yetishtirish uchun — paxta xom ashyosi qiymatining 60 foizigacha miqdorda yillik 10 foiz (shundan, 2 foizi bank marjasi) stavkada 14 oyga;

paxta-to'qimachilik klasterlari va Urug'chilikni rivojlantirish markazi tarkibidagi elita urug'chilik xo'jaliklariga paxta yig'im-terimini moliyalashtirish uchun — paxta xom ashyosi qiymatining 20 foizigacha miqdorda yillik 10 foiz (shundan, 2 foizi bank marjasi) stavkada 12 oyga, shu jumladan 3 oylik imtiyozli davr bilan.

2. Shuningdek, paxta-to'qimachilik klasterlariga paxta xom ashyosi xaridi bo'yicha yakuniy hisob-kitob uchun 12 oygacha muddatga milliy valyutada ajratiladigan tijorat kreditlari bo'yicha foiz stavkasining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshadigan, lekin 10 foiz punktidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun Jamg'arma tomonidan kompensasiya to'lanadi.

Bunda, yakuniy hisob-kitob uchun ajratiladigan tijorat kreditlari bo'yicha kompensasiya xarajatlari O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan moliyalashtiriladi.

Shuningdek O'zbekistonda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli amaliy ishlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Jumladan, Jamg'arma tomonidan qishloq xo'jaligi korxonalariga lizing tashkilotlari orqali lizing shartlarida yetkazib byeriladigan paxta terish mashinasi va g'alla o'rish kombaynlari uchun Markaziy bank asosiy stavkasining 50% miqdorida 7-10 yil muddatga mablag' ajratiladi.


Bunda, lizing oluvchi tomonidan texnika qiymatining 20 foizi avans to'lovi sifatida, qolgan 80 foizi lizing tashkiloti tomonidan Jamg'armadan ajratiladigan mablag'laridan to'lab beriladi.

Jamg'arma tomonidan 2 xil yo'nalishda subsidiyalar:

1. Qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan mahalliy qishloq xo'jaligi texnikalari kredit yoki lizing shartlarida xarid qilinganda (traktorlar, aylanma omochlar, pnevmatik va mexanik ekish seyalkalar) kredit yoki lizing foiz xarajatlarining 10 foizlik punkti miqdorigacha;

2. Qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan mahalliyashtirish darajasi 20 foizdan kam bo'lmagan texnikalar xarid qilinganda texnika qiymatining 15 foiz miqdorida ajratilmoqda.

Endi bevosita O'zbekistonda qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat buydjetidan ajratilagan subsidiyalarni oshib boorish tendensiyasiga etiborni qaratsak (1-rasm).



1-rasm. Agrar sohada davlat buydjeticidan ajratilgan subsidiyalar, mlrd.so‘mda

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Александрова О. А. Господдержка аграрной экономики США // Финансы. 2012. №3. С. 67-71.
2. Герасимов А., Барсуков М., Молчаненко С. Анализ результатов государственной поддержки сельского хозяйства // 2016. №5. С. 74-77
3. Папцов А. Роль государства в аграрном секторе развитых стран. // АПК: экономика, управление. 2007. №4. С. 83-87.
4. Узун В.Я. Особенности господдержки сельского хозяйства в России // Экономика сельского хозяйства России. 2012. №7. С.57-64.
5. Шестакова М.В. Мировой опыт государственной поддержки функционирования малого бизнеса в сельском хозяйстве/ Проблемы современной аграрной науки: сборник статей Международной научной конференции. Красноярск, 15 октября 2019г. – с.328-333
5. Бурханов А. (2023). **ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА НА ОСНОВЕ РЕСУРСОБЕРЕГАЮЩИХ ТЕХНОЛОГИЙ – КРИТЕРИЙ НОВЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ.** *Экономика и образование*, 24(2), 284–289. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/1048

ПОВЕДЕНЧЕСКАЯ ЭКОНОМИКА КАК НОВАЯ ОБЛАСТЬ ЭКОНОМИКИ

Отабеков Жавдод Нурилла угли, Ибодуллаев Нодиржон Илхомжон угли

ГулГУ, преподаватель кафедры «Бухгалтерский учет и финансы»

ГулГУ, преподаватель кафедры «Бухгалтерский учет и финансы»

Аннотация. Поведенческая экономика присоединилась к науке как новое направление в 1970-х и 1980-х годах. В статье рассматриваются сущность, историческая эволюция и теоретические основы поведенческой экономики, а также теоретические и практические аспекты, связанные с поведенческой экономикой. Исследуются параллели и контрасты между теориями, выдвинутыми представителями школы поведенческой экономики, и теориями классической экономики, а также процесс принятия экономических решений и его эффективность. Автор рекомендует иметь научный и практический опыт интеграции принципов поведенческой экономики в экономику.

Ключевые слова: поведенческая экономика, экономический анализ, политика.

Введение .

Технологические изменения XX века показали, что определение человеческого фактора в экономике следует обсуждать шире. На основе концепций утилитаризма и Номо Еconomicus (рациональных личностей, максимизирующих свои корыстные интересы) уже давно изучаются различные взгляды на концепцию человека. В свою очередь утверждалось, что человек

TEKNOLOGIK JARAYONNI OPERATSIYALARGA BO‘LIB O‘RGANISHDA O‘TKAZILGAN TAJIRIBALARNI NATIJASI VA ULARNI SAMARADORLIGI Xodjiyev M.T., Sultonov.O.S.	84
MAHALLIY VA HALQARO STANDARTLARDA PAXTANING SIFAT KO‘RSATKICHLARI Xodjiyev Muksin Tadjiyevich, Bayxanov Baxtiyor Ashrobidinovich, Sherqul Sherg‘oziyevich	87
MEHNAT FAOLIYATIDA INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEKANIZMI Maxmudov Sherali Xusanovich, Sherxonov Iftixor	89
EFFECTIVE ISSUES IN AGRICULTURAL FOOD PRODUCTION Turayeva Gulizahro Kaxxarovna, Asadullayev Chingizxon Sherzod o‘g‘li, Ravshanbekova Zilola Ikromjon qizi	94
CLASSIFICATION OF TAXES AND OTHER COMPULSORY PAYMENTS Chorshanbayev Umurzak, Aldashova Maftuna, Muratjanova Lobar	96
SIRDARYODA KLASSTER TIZIMLARI: INNOVATION VECTOR Berdiyev Gayrat Ibragimovich, Sheraliyeva Farangis Narzulla qizi,	99
DON ISHLAB CHIQUVCHI XALQARO TRENDLAR Turayeva Gulizahro Qaxxorovna	100
НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В БЮДЖЕТНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ Хайдарова Дурдона Шухратовна, Зиёдуллаева Диёра	103
ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ УЧЕТА ДВИЖЕНИЯ ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ В УЗБЕКИСТАНЕ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К МСФО Мухаметов Абубак Бабоевич, Эшбеков Алишер	107
QISHLOQ XO‘JALIGINI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVATLASH – XORIJ TAJIRIBASI Matrasulov Baxodir Erbutayevich	113
QISHLOQ XO‘JALIGINI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVATLASH – RAG‘BATLANTIRISH OMILI Burxanov Alisher Xadjimurodovich, Matrasulov Baxodir Erbutayevich	116
ПОВЕДЕНЧЕСКАЯ ЭКОНОМИКА КАК НОВАЯ ОБЛАСТЬ ЭКОНОМИКИ Отабеков Жавдод Нурилла угли, Ибодуллаев Нодиржон Илхомжон угли	120
HUDUDDA QISHLOQ XO‘JALIGI TADBIRKORLIGIDA “AQLLI” TEKNOLOGIYALARNI JORIY QILISH VA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI Allayarova Mastura Qudratullaevna, Murotjonova Lobar Murod qizi	124
SIRDARYO VILOYATIDA NOGIRONLIGI MAVJUD BITIRUVCHI YOSHLARNI BANDLIGINI TA‘MINLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR Shoyev Alim Xalmuratovich	126
HUMAN CAPITAL AND APPROACHES TO THE STUDY OF INNOVATIVE ECONOMIC DEVELOPMENT Kamilova Sanobar Mirjamalovna	129
HUDUDIIY DARAJADAGI TARKIBIIY O‘ZGARISHLARDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O‘RNI Umaraliyev Olimjon Raushanovich	132
HUDUDLAR TARAQQIYOTINI TA‘MINLASHDA AGROKLASTERLAR SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI Nurmuxamidova Muxtabar Xasanovna, Berdiqulov Samandar Anvar o‘g‘li	134
МАТЕМАТИКА И ЭКОНОМИКА КАК СИСТЕМНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ МОНИТОРИНГА РЕГИОНА Михаил Долгополов, Александр Чипура, Гулноз Абдикайимова, Абдумалик Эшниязов	139
INNOVATSIYALARNI AMALIYOTGA JORIY QILISHNING AYRIM JIXATLARI Umirov Ulug‘bek Tayirbayevich, Tojiqulov Samandar Orufjon o‘g‘li	144
PAXTANI TASHISH JARAYONINI TAXLILI ASOSIDA ATROF-MUHITGA CHIQUARILADIGAN CHANGNI KAMAÝTIRISH Salimov Otabek Alisherovich	146
ШАХСНИНГ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ Маматов Сардор Ахматжонович	149
ШАХСНИНГ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ СТРАТЕГИЯСИ Маматов Ахметжон Атажанович	152
THE ROLE OF THE STATE IN ENSURING THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF YOUTH EMPLOYMENT Tagaev Bekhzod Anvarovich	154